

## CoreAFM YORDAMIDA Fe/p-Si GIBRID STRUKTURASINING SIRTI MORFOLOGIYASINI O'RGANISH

Boymirzayev O'lmas Otabek o'g'li<sup>1</sup>,

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti magistranti<sup>1</sup>,

e-mail: [ulmasboymirzayev32@gmail.com](mailto:ulmasboymirzayev32@gmail.com)

**Annotatsiya.** Atom kuch mikroskopi (AKM) sirt morfoloyiyasi va teksturasini o'rganish uchun eng yaxshi va zamoniy qurilmadir.

**Kalit so'zlar.** Nanometr o'lchamdagি sirt topografiyasini bilish biologik jarayonlarning dinamikasi, tribologik xusiyatlari, mexanik ishlab chiqarish va asosiysi yupqa qatlamlar sirtini tadiq etish imkonini beradi.


[1] AKM yordamida olingan sirt tasvirlarini tahlil qilish orqali sirt tekisligining g'adur-budurligini va hosil qilingan yupqa qatlam sirt teksturasini yuqori aniqlikda tasavvur qilish mumkin.

Hozirgi kunda spintronika kabi ko'plab sohalar jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgani hech kimga sir emas. Bunday rivojlanish albatta yangidan-yangi materialarga bo'lgan talabni tobora oshirmoqda. "Temir-kremniy" strukturasini axborotni saqlash va uzatish vazifasini bajaruvchi qurilmalarda ishlatilishi mumkin.[2] Ishning asosiy maqsadi yupqa qatlamning sirt teksturasi uning xossalariiga qanday ta'sir qilishini aniqlashga qaratilgan bo'lib ushbu ilmiy izlanish uch bosqichda amalga oshirilgan,. Birinchi bosqich p-Si taglikning kimyoviy yo'l bilan tozalanishi, ikkinchi bosqich yuqori vakuumda toza Fe moddasining elektron nurli bug'latish yo'li bilan kremniy taglikka o'tqazilishi va uchinchi bosqich olingan Fe/p-Si tagligini AKM yordamida sirt morfoloyiyasini o'rganishdan iborat.

AKM yordamida aniqlanishi mumkin bo‘lgan quyidagi kattaliklar tekshirilayotgan sirt morfologiyasini aniqlashga yordam beradi:


1.  $R_m$ -balandlikning o‘rtacha qiymati. Bu kattalik sirtning musbat va manfiy balandliklarining o‘rtacha qiymatini aniqlaydi va sirt tuzilishi haqida dastlabki oddiy xulosalar qilish imkonini beradi.
2.  $R_a$ - tanlangan chiziq yoki sirt bo‘yicha hisoblangan o‘rtacha balandlikni aniqlaydi. Bu kattalik asosan ishlov berilgan sirt yuzasini g‘adur-budurligini baholashga imkon beradi
3.  $R_q$ -o‘rtacha kvadratik g‘adur-budurlik. Bu kattalik cho‘qqilarning sirt bo‘ylab taqsimlanishi aniqlashga imkon beradi va sirt morfologiyasini o‘rganishda o‘rtacha g‘adur-budurlik ( $R_a$ ) ga nisbatan ancha sezgirroq hisoblanadi. Bu kattalik asosan “qiysiqlik” (skewness) va “uchlilik” (kurtosis) ni hisoblashda ishlatiladi. [3]
4.  $R_y$ -namuna bo‘ylab eng yuqori va eng pastki cho‘qqilar orasidagi masofani aniqlaydi va vodiyning eng katta cho‘qqisi deb ataladi va bu kattalik belgilangan sohadagi mavjud eng katta g‘adur-budurlikni baholash imkonini beradi.
5.  $R_v$ -sirtning eng katta chuqurligini va  $R_p$ -eng katta balandligini aniqlovchi kattaliklar hisoblanadi. Bu kattaliklardan sirtning ishlov berish darajasini hamda  $R_y$ -kattalikni aniqlashda foydalaniladi.

Birinchi bosqich, ya’ni p-Si taglik sirtini kimyoviy usulda tozalangandan so‘ng uning sirti AKM ning statik kuch maromida tekshirildi (1-rasm).



*1-rasm. p-Si gibrif strukturasining “statik kuch” maromida olingan Z o‘qi bo‘yicha (a) va XY tekislikda (b) olingan 2D sirt tasvirlari ( $60\mu\text{m} \times 60\mu\text{m}$ ).*

Ikkinchı bosqich p-Si<B> tagligiga toza temir moddasini yuqori vakuumda elektron nurli bug‘latish yo‘li bilan olingan. [4] So‘ngi uchinchi bosqichda olingan yupqa qatlamli gibrild strukturaning Fe o‘tqazilgan sirti statik kuch maromida qayta tekshirilgan (2-rasm).



*2-rasm. Fe/p-Si gibrild strukturasidagi temir qatlamining sirti “statik kuch” maromida olingan Z o‘qi bo‘yicha (a) va XY tekislikda (b) olingan 2D sirt tasvirlari ( $10\mu\text{m} \times 10\mu\text{m}$ ).*

Tasvirlarni solishtiradigan bo‘lsak, kimyoviy ishlov berilgan kremniy taglikka temir o‘tqazilgandan so‘ng donadorlik oshgan, buni toza temirning bug‘lanish jarayonida sirtga o‘tirgan temir atomlarining bir jinsli joylashmagani bilan izohlash mumkin. Ammo sirt g‘adur-budurligini AKM yordamida olingan ma’lumotlarga tayanib tahlil qilish mumkin. 1-jadvalda kimyoviy ishlov berilgan va temir o‘tqazilgandan so‘ng sirtning AKM yordamida olingan ma’lumotlari keltirilgan bo‘lib, bu kattaliklar yuqorida ta’kidlaganimizdek sirt teksturasini baholash imkonini beradi.

1-jadval. p-Si<B> taglik va Fe qatlamlarining g‘adur-budurlik parametrlari.

Sirt	R <sub>m</sub> , fm	R <sub>a</sub> , nm	R <sub>q</sub> , nm	R <sub>y</sub> , nm	R <sub>v</sub> , nm	R <sub>p</sub> , nm
p-Si<B>	-41.355	1.528	3.327	145.71	104.73	-40.979
Fe	-19.009	26.446	33.783	254.31	167.74	-86.575

Jadavaldan ko‘rish mumkinki, kremniy taglikda dastlab o‘rtacha g‘adur budurlik 1.5 nm atrofida bo‘lgan ammo temir qatlami o‘tqazilgandan so‘ng bu qiymat 26.4 nm ga teng bo‘lmoqda, bu bilan temir qatlami sirtining g‘adur-budurligi taglikka nisbatan ancha yuqori bo‘lganini aytish mumkin. O‘rtacha kvadratik g‘adur-budurlikning qiymatlarini solishtirib aytish mumkinki kremniy taglik sirtida g‘adur-budurlik Fe atomlarining kremniy taglikka bir jinsli o‘tirmaganidan ya’ni sirt donador teksturaga ega bo‘lgan. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Fe/p-Si<B> gibrild strukturasidagi temir qatlaming sirti baland g‘adur budurlikka va donador sirtga ega ekan.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

- 1.A. Heredia, C.C. Bui, U. Suter, P. Young, T.E. Schaffer, NeuroImage **37**, 1218 (2007).
- 2.Istratov, A.A. Iron contamination in silicon technology / A.A. Istratov, H. Hieslmair, E.R. Weber // Appl. Phys. A. – 2000. – Vol. 70. – P. 489.
- 3.B.Rajesh Kumar, T.Subba Rao. AFM studies on surface morphology, topography and texture of nanostructured zinc aluminum oxide thin films. / Digest Journal of Nanomaterials and Biostructures Vol. 7, No. 4, October-December 2012, p. 1881-1889
- 4.Arzikulov E. U., Axrorov S. Q., Nurimov A. D., Quvondiqov Sh.J. /Fotoenergetikada nanostrukturali yarimo‘tkazgich materiallar. B 351-354 // II Xalqaro ilmiy anjumani. 19-20 noyabr 2021 yil. Toshkent-2021